

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING
TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIDAGI TASHABBUSLARI: XRONOLOGIK
TAHLIL, NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR**

Rustamov Jamoliddin Mirzakarimovich

Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti

Toshkent filiali direktor o'rinbosari.

Telefon raqami: +99890 996-39-40,

Elektron pochta manzili: jrustamov651@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21108497>

Annotatsiya. Maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasidagi shaxsiy tashabbuslarini xronologik tahlil asosida o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda 2018-yildagi dastlabki ishtirokdan 2026-yil 15 maydagi Turkiston shahrida o'tkazilgan norasmiy sammitigacha bo'lgan davr bosqichma-bosqich ko'rib chiqilib, davlat rahbarining kontseptual qarashlari (fikrlari), bu tashabbuslarning amaliy natijalari hamda kelgusi istiqbollari baholanadi. Tahlil natijalari infografika, jadval va sxemalar yordamida tizimlashtirilgan. Manba sifatida rasmiy hujjatlar, sammit materiallari va davriy nashrlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Shavkat Mirziyoyev, Turkiy davlatlar tashkiloti, tashabbus, xronologik tahlil, sammit diplomatiyasi, Turkiy dunyo xartiyasi, Turkiy investitsiya jamg'armasi, mintaqaviy integratsiya, istiqbol.

**ИНИЦИАТИВЫ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ШАВКАТА
МИРЗИЁЕВА В ОРГАНИЗАЦИИ ТУРЕЦКИХ ГОСУДАРСТВ:
ХРОНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.**

Аннотация. Статья посвящена изучению личных инициатив Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева в рамках Организации тюркских государств (ОТГ) на основе хронологического анализа. В исследовании поэтапно рассматривается период от первого участия Узбекистана в деятельности организации в 2018 году до неформального саммита, состоявшегося 15 мая 2026 года в городе Туркестан. Оцениваются концептуальные взгляды главы государства, практические результаты выдвинутых инициатив, а также перспективы их дальнейшей реализации. Результаты анализа систематизированы с использованием инфографики, таблиц и схем. В качестве источников использованы официальные документы, материалы саммитов и периодические издания.

Ключевые слова: Шавкат Мирзиёев, Организация тюркских государств, инициативы, хронологический анализ, саммитная дипломатия, Хартия тюркского мира, Тюркский инвестиционный фонд, региональная интеграция, перспективы.

**INITIATIVES OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
SHAVKAT MIRZIYOYEV WITHIN THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES: A
CHRONOLOGICAL ANALYSIS, RESULTS AND PROSPECTS**

Abstract. This article is devoted to the study of the initiatives put forward by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, within the framework of the Organization of Turkic States (OTS) through a chronological analysis. The study examines, step by step, the period from Uzbekistan's initial participation in 2018 to the informal summit held in the city of Turkistan on 15 May 2026. It evaluates the President's conceptual vision, the practical outcomes of these initiatives, and their future prospects.

The results of the analysis are systematized through infographics, tables, and diagrams.

The research is based on official documents, summit materials, and periodical publications.

Keywords: Organization of Turkic States (OTS), initiatives, chronological analysis, summit diplomacy, Turkic World Charter, Turkic Investment Fund, regional integration, future prospects.

Kirish

Davlat rahbarining shaxsiy diplomatiyasi ko'p tomonlama tashkilotlar faoliyatida ko'pincha hal qiluvchi omil bo'ladi. Sammit diplomatiyasi, ya'ni eng yuqori darajadagi muntazam uchrashuvlar orqali ilgari suriladigan tashabbuslar mintaqaviy integratsiyaning yo'nalishi va tezligini belgilaydi. Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) misolida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning faoliyati ana shunday yetakchilikning yorqin namunasidir.

O'zbekistonning tashkilotga yaqinlashuvi va keyinchalik uning eng faol ishtirokchilaridan biriga aylanishi bevosita davlat rahbarining shaxsiy tashabbuskorligi bilan bog'liq. Manbalarga ko'ra, Prezident tashkilot sammitlarida 2019–2026-yillarda yolg'iz o'zi ellik sakkizdan ortiq amaliy tashabbusni ilgari surgan, raislik davrida esa yuzdan ortiq tadbir o'tkazilgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston yetakchisining tashkilot kun tartibini shakllantirishdagi rolini yaqqol ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Prezident Shavkat Mirziyoyevning TDT doirasidagi tashabbuslarini xronologik tahlil asosida tizimli o'rganish, ularning kontseptual asoslari (fikrlari), amaliy natijalari va istiqbollari baholashdan iborat. Tadqiqot rasmiy hujjatlar, sammit materiallari va davriy nashrlarga tayanadi, tahlil xronologik-tavsifiy va institutsional yondashuvlar uyg'unligida olib borildi. Quyida avval xronologik bosqichlar, so'ngra kontseptual qarashlar, natijalar va istiqbollar ketma-ket ko'rib chiqiladi.

Metodologik jihatdan tadqiqot "sammit diplomatiyasi" konsepsiyasiga tayanadi. Bu yondashuvga ko'ra, eng yuqori darajadagi muntazam uchrashuvlar nafaqat simvolik tadbir, balki kun tartibini shakllantirish, tashabbuslarni institutsionallashtirish va davlatlararo ishonchni mustahkamlashning amaliy vositasidir. Prezident tashabbuslarini bosqichma-bosqich tahlil qilish ularning epizodik chiqishlar emas, balki izchil va o'zaro bog'langan strategiyaning bo'g'inlari ekanini ko'rsatishga imkon beradi. Shuningdek, tashabbuslarni "fikir - natija - istiqbol" mantiqiy zanjirida ko'rib chiqish ularning samaradorligini xolis baholashga yordam beradi.


1. Xronologik tahlil

Prezident tashabbuslarining rivojlanishini bir necha bosqichga ajratish mumkin. 1- va 2-infografikalar bu jarayonni umumiy ko'rinishda taqdim etadi.

1-infografika. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari raqamlarda.



2-infografika. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarining xronologik yo'li (2018-2026).



1.1. Dastlabki bosqich: yaqinlashuv va a'zolik (2018–2019)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016 yilda hokimiyat tepasiga kelgach, tashqi siyosatda tub burilish amalga oshirildi: qo'shni davlatlar bilan munosabatlar normallashtirila boshlandi, xalqaro tashkilotlarda faollik sezilarli darajada oshdi va ko'p vektorli diplomatiya konsepsiyasi asosiy yo'nalish sifatida qabul qilindi.

2018-yil 3-sentabr kuni Qirg'iziston Respublikasi Cho'lpon-ota shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining oltinchi sammitda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bilan uzviy bog'liqligini bir necha bor takidlab. Mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish tendentsiyalari kuzatildi. Qardosh davlatlar bilan davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, suv resurslaridan foidalanish masalalarini bartaraf etishga erishildi.

Aynan shu yangi siyosiy muhit sharoitida O'zbekiston 2018 yilda Turkiy Kengashga qo'shilish niyatini rasman bildirdi. Turkiy Kengash faoliyati doirasida a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik izchil rivojlanib, sanoat korxonalari, bank-moliya muassasalari hamda tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalari sezilarli darajada mustahkamlandi. Ushbu hamkorlik iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, o'zaro investitsiyalar hajmini oshirish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratdi. Shuningdek, transport-kommunikatsiya tizimlarini o'zaro bog'lash va yagona integratsiyalashgan transport yo'laklarini shakllantirish, turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha mavjud salohiyatdan samarali foydalanish muhim yo'nalish sifatida e'tirof

etildi. Madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish orqali turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy, ma'naviy va madaniy yaqinlikni yanada mustahkamlash zarurligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda yosh avlodni zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari Turkiy Kengash faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida qayd etildi. Mazkur yo'nalishlardagi hamkorlik a'zo davlatlarning barqaror taraqqiyoti va uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida baholandi.¹

"Turkiy kengash doirasida o'zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz. Hozirgi bosqichda uning faoliyatida mamlakatimiz uchun amaliy jihatdan qiziqish uyg'otadigan yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etishga tayyormiz", dedi Shavkat Mirziyoyev. Bu qadam O'zbekistonning tashkilotga rasmiy qo'shilishi yo'lidagi siyosiy irodani namoyon etdi.^[2]

2019-yil 14-sentabrda mamlakat Naxichevan bitimini ratifikatsiya qilib, shu yilning kuzida 15-oktyabr kuni Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining to'laonli a'zosiga aylandi.^[3] Yettinchi sammit davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan o'zining qator taklif va tashabbuslarini ilgari surdi. Davlat rahbari, avvalo, turkiy davlatlar ishbilarmon doiralari o'rtasida bevosita va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan biri ekanini ta'kidladi. Shu maqsadda qo'shma texnoparklar, innovatsion startap kompaniyalari va venchur fondlarini tashkil etish, shuningdek, umumiy investitsiya fondi hamda turkiy davlatlarning savdo uylarini birgalikda barpo etish tashabbusi ilgari surildi.

Prezident a'zo davlatlar aholisining salmoqli qismini yoshlar tashkil etishini inobatga olib, ularning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish zarurligini qayd etdi. Shu munosabat bilan Turkiy Kengash doirasida Yosh tadbirkorlar forumini tashkil etish va uning ilk yig'ilishini O'zbekistonda o'tkazish taklifi bildirildi. Mazkur tashabbus yoshlarning innovatsion g'oyalari va biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda ular o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Sammitda transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, yirik transport loyihalarini amalga oshirish orqali Yevropa, Xitoy va Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, **"Boku-Tbilisi-Kars" temir yo'l magistralining** tranzit salohiyatidan yanada samarali foydalanish zarurligi qayd etildi.^[4] Ushbu yo'nalishdagi hamkorlik mintaqaning logistika va tranzit imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Shuningdek, turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan ham qator amaliy tashabbuslar ilgari surildi. Prezidentimiz madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash masalasiga alohida to'xtalib, Turkiy Kengashga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalarini jamlagan "Turkiy adabiyot xazinasini" nomli kitoblar turkumini tayyorlash va uni har bir ishtirokchi mamlakatning davlat tilida nashr etish taklifini bildirdi. Mazkur loyiha turkiy xalqlarning umumiy adabiy merosini keng targ'ib etish, o'zaro madaniy aloqalarni

¹ <https://president.uz/ru/lists/view/2012>

² "Davlatlarimiz global ziddiyatlarning salbiy ta'sirini sezib turibdi - Shavkat Mirziyoyev" (Bishkek nutqi). — Gazeta.uz, 2024-yil 6-noyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/7670>

³ World of Diplomacy Journal of the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Azerbaijan № 56, 2020

⁴ <https://dunyo.info/uzk/news/integratsiya-tyurkskih-stran-put-k-ustoychivomu-razvitiyu-i-sotrudnichestvu>

mustahkamlash hamda xalqlar o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etildi.⁵

Tahlilchilar ta'kidlashicha, O'zbekistonning a'zoli bilan boshqa ishtirokchi davlatlarning faolligi ham sezilarli oshdi, bu esa tuzilmaning mintaqaviy tashkilot sifatidagi roli yuksalganidan dalolat beradi.

1.2. Institutsionallashtirish va raislik (2021–2022)

2021-yil 12-noyabrda Turkiy Kengashning Istanbul shahrida o'tgan 8-sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev nutq so'zlab quyidagi fikrlarini ta'kidladi: "Umumiy til va mushtarak qadriyatlar birligi asosida shakllangan Kengashimiz doirasida bugungi kunda siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Og'ir pandemiya davrida ham biz sherikligimizni kengaytirishga, bir-birimizga yordam berib, aloqalarimizni muntazam rivojlantirishga intilib kelmoqdamiz. Aminmanki, bugun qabul qilinayotgan qarorga binoan Turkiy Kengash nomi **"Turkiy Davlatlar Tashkiloti"** deb o'zgartirilishi hamkorligimizni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi".^[6] Aynan O'zbekiston tashabbusi bilan, tashkilot nomi **Turkiy davlatlar tashkiloti** deb o'zgartirildi. Bu nafaqat ramziy, balki strategik qadam bo'lib, tuzilmaning lingvistik-madaniy formatdan keng qamrovli siyosiy-iqtisodiy hamkorlik platformasiga o'tishini ifoda etdi. Shuningdek Prezident Shavkat Mirziyoyev Tashkilot doirasida quyidagi tashabbuslarni: O'zaro qulay savdo sharoitlarni yaratish, Transport sohasidagi o'zaro bog'liqlik dasturini ishlab chiqish, "Injining va texnologiyalar markazlari"ni tashkil etish, kelgusi yili O'zbekistonda "Turkiy davlatlar sanoat haftaligi"ni o'tkazish, "Turkiy dunyo turizmi" va "Tabarruk ziyorat" sayyohlik loyihalarini amalga oshirish va boshqalarni ilgari surdi.^[7]

2022-yil 11-noyabrda Samarqand sammiti bilan O'zbekistonning tashkilotga raisligi boshlandi. 9-Sammit yakunida Samarqand deklaratsiyasi va "2022–2026-yillarga mo'ljallangan TDT strategiyasi" qabul qilindi. Raislik davrida yuzdan ortiq tadbir o'tkazilib, qator yangi tuzilmalar shakllantirildi. Aynan shu davrda Prezident "Yangi iqtisodiy imkoniyatlar hududi"ni barpo etish g'oyasini ilgari surdi.^[8]

Samarqand sammitining ramziy ahamiyati ham katta bo'ldi: turkiy dunyoning eng qadimiy ilmiy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan shaharda o'tkazilgan yig'ilish tashkilotning tarixiy-madaniy ildizlarini zamonaviy hamkorlik bilan bog'ladi. Raislik davri shunchaki marosimiy vazifa emas, balki amaliy tashabbuslarni harakatga keltiruvchi davr sifatida foydalanildi - bu O'zbekiston yondashuvining xarakterli jihatidir. O'zbekiston barcha sammitlarda faol ishtirok etib, o'z tashabbuslari bilan tashkilot faoliyatini boyitib kelmoqda. Sammitda o'zaro tovar ayirboshlashni ko'paytirish, yashil iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va transport kommunikasiyalarini rivojlantirish orqali savdo iqtisodiy aloqalar asoslarini mustahkamlash muhimligi qayd etildi. Davlatimiz rahbari sammitda xavfsizlik, savdo, investitsiyalar, transport, qishloq xo'jaligi, energetika, turizm, sog'liqni saqlash sohalarida qo'mitalar tashkil etishni, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi

⁵ https://uza.uz/ar/posts/ozbekiston-prezidenti-turkiy-adabiyotning-yorqin-namunalarini-nashr-etish-taklifini-ilgari-surdi_253547

⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/12/turkiy-kengash/>

⁷ <https://kun.uz/news/2021/12/21/tarix-bugun-va-kelgusi-rejalar-turkiy-davlatlar-tashkiloti-bosh-kotibi-bilan-suhbat>

⁸ <https://daryo.uz/2025/10/07/turkiy-davlatlar-tashkiloti-umumiy-tarix-mushtarak-manfaatlar-va-umidli-kelajak/>

sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashni hamda, turkiy davlat yoshlarining fan va innovatsiyalar bo'yicha xalqaro kongressini o'tkazish va boshqa ko'plab takliflarni ilgari surdi.^[9]

1.3. Mukofot va mustahkamlash (2023–2024)

2023-yil 3-noyabrda Ostonada o'tgan o'ninchi sammitda O'zbekiston Prezidenti tashkilotning oliy mukofoti - **Turkiy dunyo oliy ordeni** bilan taqdirlandi. U o'z nutqida tashkilotning shakllanayotgan yangi dunyo tartibidagi o'rni va uning yuzlab million aholini qamrab oluvchi katta iqtisodiy imkoniyatlar makoni ekanini ta'kidladi. Va quyidagi takliflarini bildirdi:

- Turkiy xalqlarning tarixiy birdamligi, boy madaniy merosi hamda umumiy qadriyatlarini o'zida mujassam etuvchi "Turkiy dunyo xartiyasi"ni ishlab chiqish taklif etildi. Mazkur hujjat turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning g'oyaviy va ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qilish;

- Turkiy investitsiya fondi faoliyatining yo'lga qo'yilgani munosabati bilan a'zo davlatlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish maqsadida keyingi bosqichda **Turkiy taraqqiyot bankini** tashkil etish ishlarini jadallashtirish hamda ushbu moliyaviy institutni Toshkent shahrida joylashtirish;

- Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar qo'llab-quvvatlanib, kelgusida Markaz imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali savdo to'siqlarini bartaraf etish, o'zaro eksport-import hajmini oshirish, zamonaviy savdo mexanizmlarini joriy etish va elektron tijorat platformalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Yuk tashish hajmining ortib borayotganini inobatga olgan holda **O'rta koridorning** tranzit va logistika salohiyatini yanada kengaytirish, transport xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda temir yo'l sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida **Temir yo'l idoralari kengashini** tashkil etish;

- Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish maqsadida ekologiya yo'nalishidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, vazirlar darajasida muntazam faoliyat yuritadigan **Turkiy ekologiya forumini** tashkil etish;

Shuningdek, Turkiy sivilizatsiyani yuksaltirish g'oyasi doirasida ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, texnologik taraqqiyotni jadallashtirish, ijodkor, iste'dodli va tashabbuskor yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ilg'or bilim va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan takliflar ham bayon etildi.^[10]

2024-yil 6-noyabrda Bishkekda o'tgan o'n birinchi sammit alohida ahamiyatga ega bo'ldi: aynan O'zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan **Turkiy dunyo xartiyasi** qabul qilindi. Davlatimiz rahbari Turkiy davlatlar tashkilotining shartnomaviy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va mustahkamlash zarurligini alohida ta'kidladi. Shu munosabat bilan a'zo davlatlar o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan Strategik sheriklik, abadiy do'stlik va qardoshlik to'g'risidagi shartnomani qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. Ushbu hujjat tashkilot doirasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni huquqiy jihatdan yanada mustahkam asoslashga xizmat qilishi qayd etildi.

⁹ <https://daryo.uz/2022/11/07/turkiy-davlatlar-tashkilotining-samarqand-sammitida-10-dan-ortiq-hujjat-imzo-uchun-kiritilishi-rejalashtirilmoqda-sherzod-asadov/>

¹⁰ "O'zbekiston Prezidenti Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida muhim tashabbuslarni ilgari surdi" (Ostona). — president.uz. <https://president.uz/oz/lists/view/2939>, <https://uzbekistan.org/uz/ozbekiston-prezidenti-turkiy-davlatlar-tashkiloti-sammitida-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi/3952/>

Turkiy investitsiya jamg'armasi ishini va Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish ishlarini faollashtirish masalalarini ilgari surdi. Shuningdek, Transport koridorlari salohiyatidan yanada samarali foydalanish maqsadida yuk tashish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron hujjatlar almashinuviga bosqichma-bosqich o'tish hamda ularni a'zo davlatlar tomonidan o'zaro tan olishni nazarda tutuvchi ko'p tomonlama xalqaro bitimni qabul qilish taklif etildi. Ushbu tashabbus transport-logistika tizimining samaradorligini oshirish, yuklarni rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish va tranzit jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Logistika sohasida yuzaga kelayotgan dolzarb masalalarni keng muhokama qilish, davlat idoralari va biznes vakillari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Turkiy davlatlar logistika markazlari va yuk tashuvchilari alyansi bilan hamkorlikda Xalqaro logistika konferensiyasini muntazam o'tkazish tashabbusi ilgari surildi.^[11] Mazkur platforma transport va logistika sohasidagi ilg'or tajribalarni almashish hamda amaliy hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim maydon bo'lishi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, turkiy davlatlarning raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan "Raqamli turkiy dunyo" konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etildi.

Ushbu konsepsiya doirasida a'zo davlatlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida erishgan ilg'or tajribalarini o'zaro almashish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ilm-fan va ta'lim tizimida raqamli yechimlarni keng joriy etish hamda yirik ma'lumotlar markazlarini (data-markazlar) tashkil etish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish zarurligi alohida qayd etildi. Bu tashabbuslar mintaqada yagona raqamli makonni shakllantirish va axborot texnologiyalari sohasidagi integratsiyani yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Shuningdek, sammitda Markaziy banklar kengashi va Turkiy yashil moliya kengashini tashkil etish bo'yicha memorandumlar imzolaniib, Turkiy dunyoning yashil rivojlanish istiqbollari belgilab olindi. Bu xartiya turkiy xalqlarning umumiy qadriyatlari va merosini ifoda etuvchi konseptual hujjat sifatida e'tirof etildi.^[12]

1.4. Yangi bosqich: Gabala sammiti (2025) va Turkiston norasmiy sammiti (2026)

2025-yil 6-7-oktabr kunlari Ozarbayjonning Gabala shahrida o'tgan o'n ikkinchi sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy dunyoning birdamligini mustahkamlash, jahon siyosati, iqtisodiyoti va gumanitar sohadagi tashkilotning rolini oshirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Ular qatorida strategik sheriklik, do'stlik va qardoshlik to'g'risidagi bitimni qabul qilish, Iqtisodiy sheriklik bo'yicha doimiy kengash va Turkiy sanoat alyansini tuzish, "Turkiy yashil yo'laklar" elektron tizimi hamda "Yashil transformatsiya" konsorsiumini joriy etish, Organik qishloq xo'jaligi bo'yicha Ekspertlar guruhini tashkil etish va Turkiyorganik mahsulotlarning Yagona brendini jahon bozoriga olib chiqish, O'rta koridorni rivojlantirish va uni Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yoli hamda Transafg'on yolagi bilan bog'lash, Turkiy investitsiya jamg'armasi faoliyatini kengaytirish va boshqa qator tashabbuslar bor edi.^[13]

¹¹ <https://daryo.uz/2023/11/03/shavkat-mirziyoyev-turkiy-dunyo-xartiyasini-ishlab-chiqishni-taklif-etdi>

¹² "Bishkekda Turkiy Davlatlar Tashkiloti Davlat rahbarlarining 11-sammiti bo'lib o'tdi". - TURKSOY, 2024-yil noyabr.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi "yashil" energiyani rivojlantirish va uzatish sohasidagi strategik sheriklik bitimini tasdiqlash to'g'risidagi qarori.

Prezident, shuningdek, ta'lim va yoshlar sohasidagi hamkorlikni ta'kidlab, O'zbekistonda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti faoliyat boshlaganini alohida qayd etdi.^[14] Quyidagi jadvalda butun xronologiya umumlashtirilgan.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart To'qayevning tashabbusi bilan 2026 yil 15-mayda qadimiy va navqiron Turkiston shahrida **“Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish”** mavzusida Turkiy Davlatlar Tashkilotining norasmiy sammiti bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev norasmiy sammitda ishtirok etib o'zining qator takiflarini bildirdi.

- Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida sun'iy intellekt sohasida strategik hamkorlik tizimini shakllantirish, shuningdek, mintaqadagi ma'lumotlar markazlarini yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya tarmoqlari orqali o'zaro bog'lashni nazarda tutuvchi “Raqamli turkiy koridor” konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etildi. Ushbu tashabbus mintaqaning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish va axborot almashinuvini jadallashtirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

- Ilm-fan, ta'lim va yoshlar siyosati sohalaridagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligi qayd etilib, Toshkent shahridagi Islom sivilizatsiyasi markazini mintaqaviy ilmiy-ma'rifiy markaz sifatida rivojlantirish, TURKSOY hamda Turkiy akademiya bilan hamkorlikda tarixiy va madaniy merosga oid manbalarni yagona “katta ma'lumotlar” (Big Data) platformasida jamlash tashabbusi ilgari surildi. Shu bilan birga, Ahmad Yassaviy ta'limotining bag'rikenglik, ma'rifat va insonparvarlik tamoyillarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish muhim vazifa sifatida belgilandi.

- Transport va logistika sohasida o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish maqsadida raqamli logistika platformalarini yaratish hamda ularni o'zaro integratsiya qilish, davlat chegaralarida bojxona va tranzit tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha imzolangan Soddalashtirilgan bojxona yo'lagi to'g'risidagi bitimni amaliyotga to'liq joriy etish taklif qilindi. Shuningdek, bojxona ma'lumotlari almashinuvini to'liq raqamlashtirish orqali yuklarni real vaqt rejimida kuzatish, logistika zanjirlarini samarali boshqarish va transport jarayonlarini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

- Ekologik xavfsizlik va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tahdidlarga qarshi kurashishda a'zo davlatlarning muvofiqlashtirilgan harakatlarini kuchaytirish lozimligi qayd etildi. Shu munosabat bilan sun'iy yo'ldosh ma'lumotlariga asoslangan Turkiy davlatlar tashkilotining iqlim xatarlarini monitoring qilish tizimini yaratish, qurg'oqchilikni erta aniqlash, tuproq degradatsiyasi va muzliklarning erishi jarayonlarini muntazam kuzatib borish, shuningdek, transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish taklif etildi. Bundan tashqari, ekologik muammolarga xalqaro hamjamiyat e'tiborini yanada kuchaytirish maqsadida Tashkilot doirasida **2027-yilni “Tabiatni asrash yili”** deb e'lon qilish tashabbusi ilgari surildi.

- Terrorizm, ekstremizm va yot oqimlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, bu jarayonda kiberxavfsizlik sohasidagi aloqalarni kengaytirish va zamonaviy mutaxassislar tayyorlash, tezkor axborot almashish dolzarb ahamiyatga ega. Yangi tahdidlarni aniqlash va ularning oldini olish uchun turkiy dunyo doirasida yagona xavfsizlik va ishonch makonini yaratish maqsadida umumiy mexanizm – Kiberxavfsizlik

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-yanvardagi “Turkiy davlatlar xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-24-son qarori. Turkiy davlatlar xalqaro universiteti rasmiy sayti. — iuts.org.uz.

va raqamli infratuzilmani himoya qilish bo'yicha Turkiy alyansni tuzish tashabbusini ilgari surdilar.^[15]

2. Prezident tashabbuslarining kontseptual asoslari (fikrlar)

Xronologik tahlil Prezident tashabbuslari ortida yaxlit kontseptual qarashlar tizimi turganini ko'rsatadi. Bu qarashlarni besh asosiy ustunga ajratish mumkin (1-sxema).



1-sxema. Prezident tashabbuslarining kontseptual ustunlari.

Birinchi ustun - amaliy, loyihaviy yondashuv. Prezident tashabbuslari yirik siyosiy deklaratsiyalardan ko'ra konkret natija beruvchi loyihalar va institutsional mexanizmlarga qaratilgan. Investitsiya jamg'armasi, universitet va energetika koridori kabi tashabbuslar shu mantiqning amaliy ifodasidir.

Ikkinchi ustun - ochiqlik va ko'p vektorlilik. O'zbekiston yondashuvida TDT boshqa integratsion tuzilmalarga raqobatchi emas, balki ularni to'ldiruvchi platforma sifatida qoraladi. 2025-yilda joriy etilgan "TDT+" formati bu ochiqlik tamoyilini yana bir bor tasdiqladi.


Uchinchi ustun - iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash. Transport koridorlari, savdo yo'laklari va energetika hamkorligi Prezident tashabbuslarining markaziy o'zagini tashkil etadi. Bu yondashuv mintaqaning global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuvini kuchaytirishga yo'naltirilgan.

To'rtinchi ustun - madaniy birlik va umumiy meros. Turkiy dunyo xartiyasi, ta'lim hamkorligi va Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning faol ishtiroki bu yo'nalishning amaliy ko'rinishlaridir. Beshinchi ustun esa tinchlik va mintaqaviy xavfsizlik bo'lib, u global beqarorlik sharoitida hamkorlikni mustahkamlash zaruratidan kelib chiqadi.

Tashabbuslarning sohalar bo'yicha taqsimoti ham shu kontseptual ustunlarni aks ettiradi: iqtisodiyot, savdo va transport yetakchi o'rinni egallasa, ta'lim, madaniyat va gumanitar yo'nalishlar ham sezilarli ulushga ega (3-infografika).

¹⁵ <https://president.uz/oz/lists/view/9215>

3-infografika. Tashabbuslarning sohalar bo'yicha taqsimoti (shartli baho)




3-infografika. Tashabbuslarning sohalar bo'yicha taqsimoti (shartli baho).

3. Natijalar

Prezident tashabbuslarining o'ziga xos jihati shundaki, ularning aksariyati konkret institutsional yoki amaliy natijaga aylangan. Quyidagi sxema ayrim tashabbuslar va ularning natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi (2-sxema).

2-sxema. Tashabbuslardan amaliy natijalarga



2-sxema. Tashabbuslardan amaliy natijalarga.

Eng yaqqol natijalardan biri — tashkilot nomining o'zgarishi bo'lib, u tuzilmaning yangi maqomini mustahkamladi. Turkiy investitsiya jamg'armasi besh davlatning teng ulushi asosida tashkil etilib, 2025-yilda uning kapitali olti yuz million dollarga yetkazildi. Ta'lim sohasida Toshkentda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti faoliyat boshladi.

Turkiy dunyo xartiyasining qabul qilinishi esa madaniy-qadriyatlar o'lchovida muhim bosqich bo'ldi. Quyidagi jadvalda asosiy natijalar umumlashtirilgan.

1-jadval. Tashabbuslarning asosiy amaliy natijalari.

Yo'nalish	Amaliy natija
Institutsional maqom	Tashkilot "Turkiy davlatlar tashkiloti" deb qayta nomlandi (2021).
Moliya-investitsiya	Turkiy investitsiya jamg'armasi tashkil etildi; kapital 600 mln dollar (2025).
Ta'lim	Turkiy davlatlar xalqaro universiteti faoliyat boshladi (2025).
Qadriyatlar va meros	Turkiy dunyo xartiyasi qabul qilindi (2024).
Energetika	"Yashil yo'lak" koridori va qo'shma korxona ta'sis etildi (2025).
Gumanitar soha	6-fevral — Xotira va birdamlik kuni; Hatay yoshlari tashabbusi.

Manba: rasmiy hujjatlar va davriy nashrlar asosida tuzilgan.

Bu natijalar Prezident tashabbuslarining shunchaki niyat darajasida qolmay, institutsional shaklga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu tuzilma va mexanizmlarning bir qismi aynan O'zbekistonda - Toshkent va Samarqand shaharlarida joylashtirilgani mamlakatning tashkilot doirasidagi nufuzini oshiradi.

Natijalarni baholashda funksionalistik "tarqalish" (spillover) samarasini kuzatish mumkin: bir sohadagi hamkorlik keyingi sohaga turtki bermoqda. Masalan, O'rta koridordan foydalanish uyushmaga a'zolikka, energetika bo'yicha bitim qo'shma korxonaga, ta'lim memorandumini esa to'laqonli universitetga aylandi. Bu dinamika Prezident tashabbuslarining bir martalik chiqishlar emas, balki o'zaro bog'langan, bosqichma-bosqich chuqurlashuvchi jarayon ekanini tasdiqlaydi.

4. Istiqbollar

Prezident tashabbuslarining kelgusi istiqbollarini bir necha yo'nalishda baholash mumkin. Birinchidan, transport va energetika koridorlarining amalga oshirilishi - O'rta koridor yuk hajmining oshishi va "yashil" energiya eksportining yo'lga qo'yilishi - yaqin yillarda iqtisodiy integratsiyaning eng aniq natijalarini beradi. Ikkinchidan, Turkiy davlatlar xalqaro universiteti va akademik almashinuv dasturlari uzoq muddatda kadrlar salohiyati va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Uchinchidan, 2026-yilda Samarqandda tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlar rahbarlarining qo'shma uchrashuvini o'tkazish tashabbusi xavfsizlik o'lchovidagi hamkorlikni kengaytiradi. Quyidagi jadvalda asosiy istiqbolli yo'nalishlar va ularning kutilayotgan natijalari keltirilgan.

2-jadval. Istiqbolli yo'nalishlar va kutilayotgan natijalar.

Yo'nalish	Kutilayotgan natija
O'rta koridor	2030-yilga 11 mln tonna yuk; transit daromadlarining o'sishi.
"Yashil" energetika	2030-yildan Yevropaga 10–15 mlrd kVt·soat eksport.
Turkiy universitet	Yagona turkiy ta'lim makoni; xalqaro kadrlar tayyorlash.
Iqtisodiy kengash	Savdo-investitsiya hamkorligining institutsional mustahkamlanishi.
Xavfsizlik	2026-yilda Samarqandda qo'shma uchrashuv; ishonch mustahkamlanishi.

Shu bilan birga, istiqbollarni xolis baholashda cheklovlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Yirik infratuzilma loyihalarining yuqori narxi, Kaspiy dengizi bilan bog'liq tabiiy cheklovlar va qabul qilingan qarorlar ijrosining sur'ati integratsiyaning real samaradorligini belgilovchi omillar bo'lib qoladi. Demak, Prezident tashabbuslarining kelgusi muvaffaqiyati, eng avvalo, ularning izchil va o'z vaqtidagi amaliy ijrosiga bog'liqdir.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi tashabbuslari xronologik tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatning tashkilotdagi faol roli bevosita davlat rahbarining shaxsiy diplomatiyasi va tashabbuskorligi bilan bog'liq. 2018-yildagi dastlabki ishtirokdan 2026-yilgi Turkiston norasmiy sammitigacha bo'lgan davr izchil va bosqichma-bosqich rivojlanishni aks ettiradi.

Prezident tashabbuslari ortida amaliylik, ochiqlik, iqtisodiy xavfsizlik, madaniy birlik hamda tinchlik va xavfsizlik tamoyillaridan iborat yaxlit kontseptual tizim turadi. Kelgusida bu yo'nalishlarning samaradorligi qabul qilingan qaror va dasturlarning amaliy ijrosiga bog'liq bo'ladi. Kelgusi tadqiqotlarda Prezident tashabbuslarining boshqa a'zo davlatlar yetakchilari yondashuvlari bilan qiyosiy tahlili hamda ularning iqtisodiy ta'sirini miqdoriy baholash istiqbolli yo'nalishlar bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari bo'yicha rasmiy axborotlar. - president.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi "yashil" energiyani rivojlantirish va uzatish sohasidagi strategik sheriklik bitimini tasdiqlash to'g'risidagi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-yanvardagi "Turkiy davlatlar xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-24-son qarori.
4. "Davlatlarimiz global ziddiyatlarning salbiy ta'sirini sezib turibdi - Shavkat Mirziyoyev" (Bishkek nutqi). - Gazeta.uz, 2024-yil 6-noyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/7670>
5. World of Diplomacy Journal of the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Azerbaijan № 56,2020
6. "Davlatlarimiz global ziddiyatlarning salbiy ta'sirini sezib turibdi - Shavkat Mirziyoyev" (Bishkek nutqi). - Gazeta.uz, 2024-yil 6-noyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/7670>
7. "Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti yakunlandi" (Samarqand, 2022). - president.uz.
8. "O'zbekiston Prezidenti Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida muhim tashabbuslarni ilgari surdi" (Ostona). - president.uz. <https://daryo.uz/2023/11/03/shavkat-mirziyoyev-turkiy-dunyo-xartiyasini-ishlab-chiqishni-taklif-etdi>.
<https://president.uz/oz/lists/view/2939>,
9. "Bishkekda Turkiy Davlatlar Tashkiloti Davlat rahbarlarining 11-sammiti bo'lib o'tdi". - TURKSOY, 2024-yil noyabr
10. "O'zbekiston - Turkiy davlatlar tashkiloti: umumiy turkiy merosni asrab-avaylash va mustahkamlash yo'lida". - "Dunyo" AA, 2024.
11. "Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida ishtirok etdi" (Gabala, 2025). - Anhor.uz, 2025-yil 7-oktabr.
12. "Turkiy hamjihatlik sari mustahkam qadam" (Gabala sammiti tahlili). -milliykontent.uz, 2025.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-yanvardagi PQ-24-son qarori (Turkiy davlatlar xalqaro universiteti).
14. Turkiy davlatlar tashkiloti. Iqtisodiy hamkorlik sohasi. - turkicstates.org.
15. "Turkiy davlatlar tashkiloti: kecha va bugun". - Xalq so'zi (xs.uz).
16. <https://president.uz/ru/lists/view/2012>
17. <https://dunyo.info/uzk/news/integraciya-tyurkskih-stran-put-k-ustoychivomu-razvitiyu-i-sotrudnichestvu>
18. https://uza.uz/ar/posts/ozbekiston-prezidenti-turkiy-adabiyotning-yorqin-namunalarini-nashr-etish-taklifini-ilgari-surdi_253547
19. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/12/turkiy-kengash/>
20. <https://daryo.uz/2022/11/07/turkiy-davlatlar-tashkilotining-samarqand-sammitida-10-dan-ortiq-hujjat-imzo-uchun-kiritilishi-rejalashtirilmoqda-sherzod-asadov/>
21. <https://daryo.uz/2025/10/07/turkiy-davlatlar-tashkiloti-umumiy-tarix-mushtarak-manfaatlar-va-umidli-kelajak/>